

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISHDA SO‘ZNING O‘RNI****Nurmonov Asliddin Xusniddin o‘g‘li**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6558123>

*Annotatsiya.* Maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishda so‘zning o‘rni va ahamiyati haqida bo‘lib samimiylik, ravon nutq va kommunikatsiya ta‘lim jarayonini tashkil etishning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

*Kalit so‘zlar:* kommunikatsiya, kommunikativ madaniyat, kommunikativ kompetensiya, nutqiy muloqot, ravon nutq, samimiylik, pedagogik mahorat.

**РОЛЬ СЛОВА В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ  
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

*Аннотация.* В статье речь идет о роли и значении слова в формировании коммуникативной культуры будущих учителей. Искренность, беглость речи и общение являются основными звеньями в организации учебного процесса.

*Ключевые слова:* общение, коммуникативная культура, коммуникативная компетентность, речевое общение, беглость речи, искренность, педагогическое мастерство.

**THE ROLE OF THE WORD IN SHAPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF  
FUTURE TEACHERS**

*Abstract.* The article is about the role and importance of the word in shaping the communicative culture of future teachers. Sincerity, fluent speech and communication are the main links in the organization of the educational process.

*Keywords:* communication, communicative culture, communicative competence, speech communication, fluent speech, sincerity, pedagogical skills.

**KIRISH.** O‘qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta‘sir ko‘rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o‘quvchilar orasida o‘zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o‘zgartirishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo‘lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg‘usini, tuyg‘ularini tushunishi va hamdard bo‘lishi zarur. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o‘qituvchi:

- o‘quvchilar bilan bo‘lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo‘ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o‘rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo‘lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish

munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so‘z qudratini takomillashtirib boradi. U o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so‘z boyligini go‘zal, ravon, ifodali, ta‘sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta‘sirchan so‘zlay bilish ham san‘at. Bu san‘atdan bebahra bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o‘qitishdan qat‘iy nazar, o‘qituvchining

asosiy quroli soʻz boyligidir, u soʻz qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi. Pedagogning soʻzi va ishi ham bir boʻlishi kerak. Soʻz bilan ogʻzaki taʻsir oʻtkazish oʻqituvchining madaniy saviyasida va oʻquvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, insonning “aql-zakovati, fikr-tuygʻulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri maʼlum darajada soʻzda ifoda etiladi.

**TADQIQOT NATIJALARI.** Muomala madaniyatida soʻz aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi” (Aziz Yunusov). Soʻz bilan ogʻzaki taʻsir oʻtkazishni amalda oʻz pedagogik faoliyatida qoʻllovchi oʻqituvchi oʻz hissiyotlarini, ijodiy taʻsirlanishini boshqarish koʻnikmalariga ega boʻlishi va oʻz his-tuygʻularini faqat taʻlim–tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda oʻquvchi qalbini nooʻrin soʻzlar bilan jarohatlab qoʻymasligi, soʻzlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. Oʻqituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari soʻz bilan ogʻzaki taʻsir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning balandpastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi soʻzlar, notiqlik sanʼati asosida taʻsir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, taʻqiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, oʻquvchining erkin mulohazalarini maʼqullash yoki nojoʻya harakatlari uchun ayblash soʻzning ogʻzaki taʻsir etuvchi komponentlaridir. Soʻz bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi maʼlum qilinayotgan axborot hajmdorligi va taʻsirchanligini kuchaytirishi lozim.

**XULOSA.** Har qanday sharoitda oʻqituvchi oʻquvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik koʻrishi lozim. Oʻqituvchining nutqi darsda hamisha oʻquvchilarga qaratilgan boʻladi. Oʻqituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, oʻquvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan boʻlsa ham, uning nutqi hamisha oʻzining ichki kuchi, ishonchi, oʻzi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi oʻquvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli boʻladi. Oʻqituvchining bayoni oʻquvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi: oʻqituvchi oʻquvchilar oldida savollar qoʻyib, ularni asta-sekin toʻgʻri javob berishga undaydi, oʻquvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi.

#### *Adabiyotlar*

1. Социологический энциклопедический словарь. В русском, английском, немецком, французском и чешском языках. Редактор – координатор – академик РАН Г.В.Осипов. – Москва: Издательская Группа ИНФРА . Москва: НОРМА, 1998. – С. 210
2. Zebo Qosimova – Taʻlim texnologiyalari (pedagogik mahorat) oʻquv-qoʻllanma. Toshkent – 2013
3. B.X.Xodjayev.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.T-2017
4. Mirxodjaeva Dilorom Botirovnaning «Oʻqituvchi kasbiy faoliyatini insonparvarlashtirish oʻquvchilarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashning omili sifatida– Pedagogika Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
5. Zebo Qosimova – Taʻlim texnologiyalari (pedagogik mahorat) oʻquv-qoʻllanma. Toshkent – 2013
6. A. Xoliqov- Pedagogik Mahorat - Toshkent «Iqtisod-Moliya» 2011
7. Umumiy psixologiya darslik - F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent – 2010
8. S.Y. Temurov. Boʻlajak matematika oʻqituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2014. 136 bet.